

**VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN
JINOYATLARNI TERGOV QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI****Raxmatulloyev Murodjon Xikmatulloyevich**

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11448043>

Annotatsiya. Maqolada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishning huquqiy asoslari, mavzuga oid adabiyotlar tahlili, Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishning samaradorligini oshirish, voyaga yetmaganlarning huquqlarini qo'shimcha kafolatlash, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish va profilaktika qilish orqali jinoyatlar sonini keskin kamaytirish masalalari, me'yoriy hujjatlar, qonun va qonunosti hujjatlaridagi moddalarning mohiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmagan, jinoyat, tergov, huquqiy asos, huquq, profilaktika, me'yoriy hujjatlar, qonun va qonunosti hujjatlari, modda, ijtimoiy soha.

Аннотация. В статье рассматриваются правовые основы расследования преступлений, совершенных несовершеннолетними, анализ литературы по данной теме, вопросы повышения эффективности расследования преступлений, совершенных несовершеннолетними, дополнительной гарантии прав несовершеннолетних, резкого сокращения числа преступлений путем предупреждения и профилактики преступности среди несовершеннолетних, рассмотрены вопросы применения норм, положений закона и подзаконных актов. о сущности данные предоставлены.

Ключевые слова: несовершеннолетний, преступление, расследование, правовая основа, право, профилактика, нормативные акты, закон и подзаконные акты, статья, социальная сфера.

Annotation. The article provides information on the legal basis for the investigation of crimes committed by minors, analysis of thematic literature, improving the effectiveness of the investigation of crimes committed by minors, additional guarantees of the rights of minors, issues of drastically reducing the number of crimes by preventing and preventing crime among minors, regulatory documents, the nature of substances in law and legislative acts.

Keywords: minor, crime, investigation, legal basis, Law, prevention, regulatory documents, law and legislative acts, article, social sphere.



Dunyoda jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, BMTning 1989-yil 20-noyabrdagi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga muvofiq «bolalarga nisbatan amalga oshiriladigan har qanday harakat (harakatsizlik) birinchi navbatda, uning manfaatlarini himoya qilishga qaratilmog'i lozim»[1]. Turli mamlakatlarda sodir etilgan jami jinoyatlarning 30-40 % i voyaga yetmaganlar hissasiga to'g'ri kelishi, jumladan, Buyuk Britaniyada 40 %, Amerika Qo'shma Shtatlarida 32 %, Germaniyada 38 % ni tashkil etishi, so'nggi yillarda voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning so'nggi yigirma yil davomida yiliga 3 % dangina kamayishi voyaga yetmaganlarni tergov qilish bilan bog'liq faoliyatni takomillashtirish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Jahonda voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishining sabablarini o'rganish, ular o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, bu sohada tergov olib borish uslubiyotini ilmiy jihatdan takomillashtirish bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda, jumladan, jinoiy javobgarlik minimal yoshi, ushbu yoshni belgilashda psixofiziologik jihatlarning ta'siri, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlik va jazoni yanada liberallashtirish, tergov va sud jarayonining ixtisoslashtirilishini kuchaytirish, voyaga yetmaganlarning huquqlarini qo'shimcha himoya qilish, voyaga yetmaganlar jinoyatlarini oldini olish va profilaktika qilishning yangi usullarini ishlab chiqish bilan bog'liq masalalarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlar huquqini himoya qilish borasida qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, xususan, voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'shimcha kafolatlar kiritilishi, voyaga yetmaganlar uchun tayinlanadigan jazolarning yanada liberallashtirilishi hamda ular o'rtasidagi jinoyatchilikning oldini olish va profilaktika qilish, yoshlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida keng ko'lamli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. «Voyaga yetmaganlar uchun nazarda tutilgan jinoiy jazolarni liberallashtirish, protsessual harakatlarni o'tkazishda ularning huquqiy himoyasini kuchaytirish»[2] ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, bu sohani tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish masalasi hali to'liq o'rganilmagan. Biroq, ko'p milliy olimlarimiz tomonidan tadqiqotning ayrim jihatlari, G'.Abdumajidov, R.Alimova, A.Bazarov, Sh.Djumanov, A.Irsaliyev, N.Ismoilov, D.Mirazov, T.Mamatqulov, A.Norboyev, B.Naberayev, U.Nosirov, A.Raximov, Sh.Sodiqova, G.Tulaganova, X.Turabbayev,



N.Toshtemi rov, M.Uteniyazov, B.Usmonov, V.Fayzullayeva, Sh.Xasanov, R.Shakurov, A.Qulaxmetov, N.Ramazonova va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada ko'rib chiqilgan.

MDH mamlakatlari doirasida T.Averyanova, R.Belkin, O.Bayev, I.Belozerova, A.Volinskiy, I.Gerasimov, A.Golovin, Y.Drapkin, Y.Ishenko, V.Isayenko, Y.Koruxov, V.Kornouxov, P.Kokorin, I.Lustina, Y.Rossiyskaya, A.Toporkov, A.Fillipov, A.Shatalov, S.Shestakova, A.Shmonin, N.Yablokovlar kriminalistika nazariyasidan kelib chiqib mavzuning ayrim jihatlarini tadqiq qilganlar. Bevosita voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish bilan bog'liq masalalarni o'rgangan olimlardan K.Avaliani, O.Andriyanova, X.Bopxoyev, S.Vergunova, I.Gesmanova, G.Dimov, T.Isakova, N.Kiryanina, I.Makarenko, S.Matveyev, A.Osmonova, A.Sichev, S.Timoshenko, S.Trashkova, N.SHelochkovlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Xorijiy mamlakatlarda voyaga yetmagan jinoyat sodir etgan shaxslarning psixologiyasi, jinoiy javobgarlik minimal yoshi borasida K.Kannin va R.Uayt (Avstraliya), D.Kipriani, K.Xilbran, K.Xvang, K.Velanova, B.Luna, Dj.MakKord, K.Uidom, N.Krouell, S.Ordaz, Ui.Foran, D.Simmonds, M.Xolkuist, M.Asato (AQSh), S.Shennax (Avstriya) kabi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishning samaradorligini oshirish, voyaga yetmaganlarning huquqlarini qo'shimcha kafolatlash, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish va profilaktika qilish orqali jinoyatlar sonini keskin kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada statistik materiallarni tahlil etadigan bo'lsak, 2023-yil jinoyat sodir etgan 3599 nafar voyaga yetmaganlarning 82,6 foizi jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ulardan 744 nafari 13-15 yosh, 2855 nafari 16-17 yoshlidir. Qizlarning ulushi 8,7 foiz - 314 kishini tashkil etdi.

Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar eng ko'p Farg'ona viloyatida qayd etilgan - 700 nafar. Keyingi o'rinlarda Toshkent - 545, Namangan viloyati - 451 va Toshkent viloyati - 345 kishi. Eng past ko'rsatkichlar Jizzax - 54, Navoiy - 62 va Xorazm viloyatlarida - 66 kishi.

Jinoyat turlari bo'yicha voyaga yetmaganlarning aksariyati yoki 1602 nafari o'g'rilik (bir yil avval - 1581 nafar), 453 nafari bezorilik (284 nafar), 135 nafari firibgarlik (134 nafar), 181 nafari talonchilik va bosqinchilik (162 nafar) sodir etgan, 104 nafari qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (74), 54 nafari - nomusga tegish va nomusga tegishga urinish (46), 27 kishi - tovlamachilik (16)



12 nafari esa qasddan odam o'ldirish va odam o'ldirishga urinish (10) jinoyatini sodir etgan.

Voyaga yetmaganlarning 57 nafari giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish yoki sotish, 121 nafari o'linga olib kelmaydigan yo'l-transport hodisalari, 4 nafari qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlarni tayyorlash yoki sotish kabi jinoyat qilgan.

Jinoyat sodir etilgan vaqtda ularning 2730 nafari talabalar, 510 nafari ishchilar, 148 nafari ishlamaydigan yoki o'qimaydigan, 8 nafari xizmatchilar, 190 nafari boshqa toifalarga mansub bolalar bo'lgan.

Ushbu yo'nalishda kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ushbu tadqiqotlarning natijasi o'laroq, amaldagi qonunchilikni hamda tergov amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida birinchi navbatda voyaga yetmaganlar jinoyatlari tushunchasi borasidagi doktrinal qarashlarni tahlil qilish lozim.

Bu borada Ye.Chernenkning qayd etishicha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ikki terminni, jinoyat tushunchasi va voyaga yetmagan jinoyatchi tushunchalarini qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi deganda 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyat turidan qat'iy nazar har qanday jinoyatlar tushuniladi[3]. P.D.Gadjiyeva va G.N.Magomedovlar ham voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi tushunchasini ikki terminga ajratadilar, biroq yosh masalasida jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan yosh bilan bir qatorda, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida to'rt davr mavjudligini qayd etib o'tadilar: 10-13 yosh, 14-15 yosh, 15-16 yosh, 17-18 yosh[4]. Y.Demidova- Petrova voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini murakkab tizimli-tuzilmaviy ijtimoiy hodisa sifatida baholaydi[5]. Shuni alohida qayd etish lozimki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini faqatgina yosh bilan baholash juda tor doiradagi tushuncha hisoblanadi.

Y.V.Xarmayev va Ider Batchuluunning fikricha, voyaga yetmaganlar jinoyatlarini 14-18 yosh oralig'idagi shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat qonunchiligi bilan jazolanadigan qilmishlarning majmui bo'lib, umumiy jinoyatchilikning bir qismi[6] sifatida ko'rib chiqishi diqqatga sazovor.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bu jinoyatchilikning mustaqil turi bo'lib, muayyan vaqt oralig'ida muayyan hududda sodir etilgan jinoyatlar va shaxslar (14-18 yosh orasidagi) majmuini tashkil etadi va son-sifat tavsifiga ega bo'ladi[6].

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi deganda O.Koroleva va V.Vaulxin



muayyan hududda va muayyan vaqtda sodir bo'ladigan salbiy holatlarning ahamiyati va muhimligini tushunadi [7]. Bizningcha, mazkur ta'rif umumiy bo'lib, barcha jinoyatlar uchun qo'llanilishi mumkin, ayni paytda voyaga yetmaganlar jinoyatlari tushunchasini aks ettirmaydi.

Demak, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar deganda jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikning minimal yoshi va milliy qonunchilik asosida voyaga yetish yoshi sifatida tan olingan yoshga yetgunga qadar sodir etilgan jinoyat qonunchiligi bilan jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmishlar tushunilib, umumiy jinoyatchilikning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlari tushunchasining tahlili voyaga yetish yoshi va jinoiy javobgarlik kelib chiqadigan minimal yosh bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Voyaga yetish yoshiga to'xtalib o'tar ekanmiz, 1989 yilda qabul qilingan va mamlakatimiz tomonidan 1992 yilda ratifikatsiya qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaning 1-moddasiga muvofiq, voyaga yetish yoshi 18 yosh deb belgilangan, agar ushbu yoshdan oldinroq voyaga yetgan deb hisoblash uchun asos mavjud bo'lmasa (masalan, emansipatsiya holatlarida)[8]. Aksariyat MDH mamlakatlarining fuqarolik kodekslarida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ham (22-modda), voyaga yetish yoshi sifatida xuddi shu yosh qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga ko'ra, 18 yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs bola hisoblanadi[9].

Biroq jinoyat qonunchiligi shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi uchun asos bo'ladigan boshqa yoshni belgilaydi. Bu orqali qonun chiqaruvchi voyaga yetmaganlar huquqlarini qo'shimcha himoya qilish maqsadida ularning jinoiy javobgarligi masalalarini huquqiy tartibga solishga qaratilgan qoidalarni o'rnatadi. Aksariyat jinoyat kodekslarida "jinoiy javobgarlik minimal yoshi" tushunchasi keng qo'llanilmasa-da (odatda "jismoniy shaxslarning javobgarligi" tushunchasidan foydalaniladi), mazkur tushuncha xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan. Jumladan, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 40-moddasi 3-qismining "a" bandiga ko'ra, ishtirokchi davlatlar tomonidan voyaga yetmaganlarning shunday minimal yoshi belgilanishi lozimki, undan kichik yoshda jinoyat sodir etish imkonsiz deb hisoblanadi[10].

1985-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 40/33-sonli Rezolyusiyasi bilan qabul qilingan BMTning voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishga aloqador minimal standart qoidalari (Pekin qoidalari)da ham shu kabi qoidalar



mustahkamlangan. Mazkur qoidalarining 4-bandi “Jinoiy javobgarlik yoshi” deb nomlanib, uning 1-qismida voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlik yoshi tushunchasi tan olingan huquqiy tizimlarda ushbu yoshning minimal darajasi hissiy, ruhiy va intellektual rivojlanish jihatlarini inobatga olinib, juda kichik yoshdan belgilanishining maqsadga muvofiq emasligini mustahkamlaydi.

2007-yil 15-yanvardan 2-fevralgacha Jenevada o‘tkazilgan Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitaning 44-sessiyasi 2007-yil 25-apreldagi CRC/C/GC/10-sonli yig‘ilish bayonnomasining “c” bandida huquqqa xilof xatti-harakatlar sodir etgan bolalar va ularning yoshi, boshqacha bayon qilinganda jinoiy javobgarlik minimal yoshi masalalariga bag‘ishlangan.

Xususan, mazkur minimal yosh quyidagilarni anglatadi:

- ushbu belgilangan yoshdan kichik bo‘lgan jinoyat sodir etgan shaxslar jinoiy-huquqiy protseduralar orqali javobgarlikka tortilishi mumkin emas;

- jinoyat sodir etilgan (yoki jinoyat qonunchiligi buzilgan) vaqtda jinoiy javobgarlik minimal yoshiga yetgan, ammo 18 yoshga yetmagan bolalarga nisbatan rasmiy ayblov e‘lon qilinishi va ularga nisbatan jinoiy-huquqiy protseduralar qo‘zg‘atilishi mumkin. Barcha protseduralar va ularning so‘nggi natijalari “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaning tamoyillari va qoidalariga to‘la muvofiq kelishi lozim.

2007-yil 25-apreldagi CRC/C/GC/10-sonli yig‘ilish bayonnomasida qayd etilishicha, ishtirokchi davlatlar tomonidan topshirilgan hisobotlardan ko‘rinib turibdiki, jinoiy javobgarlikning minimal yoshi turli mamlakatlarda turlicha qilib belgilangan. U juda past yosh hisoblangan 7-8 yosh bo‘lishi yoki mutanosib 14-16 yosh qilib belgilangan bo‘lishi mumkin. Aksariyat ishtirokchi davlatlar jinoiy javobgarlikning ikki minimal yoshini belgilaydi.

Avstriyalik olim Stefan Shennaxning yuqoridagilarga to‘liq qo‘shilgan holda, voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish, yoshlarni yuqori jinoiy javobgarlikning minimal yoshi orqali penitensiar tizimga tushishiga va jinoiy javobgarlikdan qochishga yo‘l qo‘ymaslik, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan muqobil jazo turlarini keng qo‘llash, hibsda saqlanayotgan bolalar sonini kamaytirish voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishning muhim omillari, deb hisoblaydi. Uning fikricha, jinoiy javobgarlik yoshini 14 qilib belgilash juda muhim, shu bilan bir qatorda shu yoshdan kichik yoshda huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar uchun rasmiy jinoyat protseduralaridan farqli muqobil choralarni belgilash maqsadga muvofiq. Xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonunchiligini tahlil qilish orqali eng kichik yosh sifatida 7 va eng yuqori yosh sifatida 16 belgilanganligiga guvoh bo‘lish mumkin.



Chunonchi, Amerika Qo'shma Shtatlarida jinoiy javobgarlik minimal yoshi federal va shtatlar darajasida turlicha belgilanadi. Federal darajada 33 shtatda minimal yosh belgilanmagan, bu jinoyat sodir etgan har qanday yoshdagi bolaning jazoga tortilishi mumkin ekanligidan dalolat beradi. Vaholanki, deyarli barcha shtatlarda layoqatlilik imtihoni tashkil etiladi va o'tkaziladi. Jinoiy javobgarlik minimal yoshi belgilangan shtatlar orasida eng kichigi (7 yosh) Shimoliy Karolinada va eng yuqorisi (10 yosh) Viskonsin shtatida hisoblanadi.

Biroq butun dunyoda bolalarning huquqlariga rioya qilish bo'yicha o'z huquqiy majburiyatlarini bajarmaygina qolmay, aksincha, yanada kichikroq yoshdagi bolalarni jinoiy javobgarlikka tortish bilan bog'liq choralarni qo'llayotgan mamlakatlar soni ham ortib bormoqda. Buning oqibatida ba'zi davlatlar jinoiy javobgarlik minimal yoshini ilgarigidan kichikroq yosh qilib belgilamoqdalar. Misol tariqasida, Daniya (15 dan 14 ga), Panama (14 dan 12 ga) va Vengriya (14 dan 12 ga) da kichikroq yoshdagi bolalarga nisbatan javobgarlik nazarda tutilgan.

Bu borada milliy qonunchiligimizni tahlil etadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasida jinoiy javobgarlik yoshi haqidagi qoidalar mustahkamlangan. Unga ko'ra, 18 yosh (voyaga yetish yoshi)dan kichik uch turkum yosh guruhlarini ajratib chiqarish mumkin:

1) Jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar Jinoyat Kodeksining 97, 98, 104 - 106, 118, 119-moddalari, 126-moddasining to'rtinchi - sakkizinchi qismlarida, 137, 164, 166, 169-moddalari, 173-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari, 220, 222, 247, 252, 263, 267, 271-moddalari, 277-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida nazar da tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar.

2) Jinoyat Kodeksining 122, 123, 1251-moddalarida, 126-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 127, 127, 128-1, 144, 146, 193-195, 205-210, 225, 226, 230-232, 234, 235, 279- 302-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun jinoyat sodir etgunga qadar o'n sakkiz yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

3) 16 yosh jinoiy javobgarlikning umumiy yoshi hisoblanadi.

Buning asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida jinoiy javobgarlik minimal yoshi 14 yosh qilib belgilangan.

Qiyosiy tahlil natijalari aksariyat rivojlangan mamlakatlarda milliy qonunchiligimiz kabi jinoiy javobgarlik minimal yoshi 14 yosh qilib belgilanganligi hamda ushbu yoshni belgilashda xalqaro-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan qoidalarga asoslanganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.



Yuqorida qayd etilganidek, Pekin qoidalariga muvofiq bunday yosh belgilanishida ruhiy, aqliy va intellektual yetuklik darajasiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Turli mamlakatlarning yoshga doir qonunchiligini o'rganish bilan bir qatorda, u yoki bu yoshni tanlashda qanday omillar inobatga olinganligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday omillarga psixologiya, fiziologik masalalar va ijtimoiy rivojlanish kabilarni kiritish mumkin.

So'nggi ikki dekada davomida bolalarning normal rivojlanishi va delinkvent xulq-atvor shakllanishi borasida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari individual, ijtimoiy va jamoatchilik ta'sirida o'zgarib boradi.

AQSh olimlari Elizabet P.Shulman va Lourens Shtenberglarining qayd etishlaricha, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda jinoiy javobgarlikka tortiladigan yoshlar bola hisoblanadimi va bolalarga xos impulsivlik (jahlning tezligi), yetuklikka erishmaganlik, ta'sirchanlik xosmi yoki katta yoshdagilardek avtonom, o'z xatti-harakatlariga javob bera oladigan, o'z yo'lini tanlab olganmi. Ularning ta'kidlashicha, bu borada ilmiy izlanish olib borgan tadqiqotchilarning aksariyati turli shaxslar turli yoshda yetuklikka erishishi haqida xulosaga kelganlar.

AQSh Oliy sudi tomonidan ko'rib chiqilgan jinoyat ishlarini tergov qilish chog'ida o'tkazilgan psixoijtimoiy imkoniyatlar va neyron mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarning natijalari voyaga yetmaganlarni turkum sifatida voyaga yetganlarga nisbatan jinoyat sodir etishda ayblilik darajasi past ekanligiga asos bo'lgan (misol uchun, Grexem Floridaga qarshi va Miller Alabamaga qarshi kabi ishlarda).

Beatriz Luna va Keterin Rayt tomonidan voyaga yetmaganlarning aqliy rivojlanishi bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratilgan. Ularning fikricha, voyaga yetmaganlarga impulsivlik va tavakkalchilik xos.

O'tkazilgan tadqiqotlar voyaga yetmaganlarning aqliy rivojlanishi voyaga yetganlarnikidan tubdan farq qilishi va buning oqibatida (ayniqsa, voyaga yetmaganlarning do'stlari xam ishtirokchi bo'lsa) jinoyat sodir etilishiga turtki bo'lishi mumkin. Turli tadqiqotchilar tomonidan miyaning prefrontal qismi o'rganilganda undagi kumush rang modda voyaga yetgan shaxslardagina yetarli darajada bo'lishi aniqlangan.

Avstraliyalik olimlar Kannin va Uaytning qayd etishicha, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari voyaga yetganlarga nisbatan ko'proq oshkor bo'ladi. Buning sababi shundaki, voyaga yetmaganlar jinoyat sodir etishda malakasi yetarli bo'lmaydi, aksariyat hollarda guruh bo'lib jinoyat sodir etadi, ko'pincha jamoat joylarida (jamoat transporti va savdo markazlari), o'z yashash manziliga



yaqin bo'lgan hududlarda jinoyat sodir etadi. Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari e'tibor tortishi, uzoq rejalashtirishsiz sodir etilishi, epizodik xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Ayrim adabiyotlarda voyaga yetmaganlarga tengdoshlari bilan muloqot, o'z muhitida obro'ga erishish kabilar juda muhim. L.Y.Drapkinning ta'kidlashicha, zamonaviy bolalar o'zini asosan iste'molchilar sifatida tutadi, ularda jamiyat va oilalari oldida burch va mas'uliyat hislari mavjud emas. Ko'pchilik voyaga yetmaganlarda ota-onalarining unchalik yuqori bo'lmagan ijtimoiy mavqeidan xafalik, o'zlari istagan moddiy qiymatliklarga ega bo'la olmaslik kabi sifatlar bor bo'lib, istaganlariga erishishda hech narsa to'sqinlik qila olmaydi. Ular o'z his-tuyg'ularini nazorat qila olmaydi, vaziyatni to'g'ri baholamaydi, buning oqibatida ayrim hollarda o'ta shafqatsiz jinoyatlar sodir etiladi.

R.M.Abizov va Y.R.Shestopalovalarning qayd etishicha, voyaga yetmagan jinoyatchilarga fikrlash va anglashning to'liq shakllanmaganligi, irodaviy rivojlanishning yetarli emasligi, ijtimoiy tajribaning kamligi xos bo'lib, ularni to'rt guruhga ajratish mumkin: tasodifiy jinoyatchilar - bu birinchi navbatda salbiy sharoitdan kelib chiqib birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxslar; beqaror jinoyatchilar - voyaga yetgan shaxslar yoki o'z tengdoshlari ta'siri ostida jinoyat sodir etgan shaxslar; g'azabkor jinoyatchilar - axloqiy baholar, jamoatchilik fikrini hisobga olmaslik, nizoli vaziyatni keltirib chiqarishga urinishga harakat qiluvchi shaxslar.

A.B.Qulahmetovning fikricha, voyaga yetmagan huquqbuzarlarning 4 tipi o'rtasidagi farq nihoyatda shartli. Birinchi huquqbuzarlar tipiga ilk bor jinoyat sodir qilgan o'spirinlar mansub. Ularning avvalgi xatti-harakatlari va ma'naviy qiyofasi yetarli ravishda ijobiy baholanadi. Ikkinchi huquqbuzarlar tipiga ilk bor jinoyat sodir qilgan voyaga yetmaganlar kiradi, ammo ularning jinoyatdan avvalgi xatti-harakatlari va ma'naviy qiyofasi unchalik odobga to'g'ri bo'lmagan bo'ladi. Uchinchi tip - ma'naviy jihatdan buzilgan voyaga yetmaganlar. Ular avval har xil huquqbuzarliklar sodir etgan, ma'muriy javobgarlikka tortilgan, maxsus maktablar va yopiq turdagi hunar-texnika bilim yurtlariga yuborilgan. To'rtinchi tip - umumiy ma'naviy jihatdan buzilganlar. Bu tipga jamiyat uchun nihoyatda katta xavf tug'diruvchi voyaga yetmagan shaxslar kiradi, ularning xatti-harakatlari mustahkam g'ayriijtimoiy xususiyatga ega.

Bir guruh olimlarning qayd etishicha, ko'pgina voyaga yetmaganlarga jonsaraklik, ishonuvchanlik, tez hissiyotga berilish, mustaqillikka bo'lgan intilish, ta'sirchanlik, yaxshi tarbiya olmaslik oqibatida dag'allik, o'jarlik, behayolik, jizzakilik, hayotiy tajriba yetishmasligi, tamoyillar, qoidalar, tushunchalar, o'ziga



va atrofdagilarga baho berish mezonlarining to'liq shakllanib ulgurmaganligi, natijada bo'lib o'tayotgan voqealarning asl mohiyatini anglab yeta olmaslik, gapga va do'q - po'pisaga ko'nuvchanlik, betayinlik, kattalarga taqlid qilishga intilish, o'z imkoniyatlariga ortiqcha baho berib yuborish, shu bilan birga do'stlikka intilish kabi belgilar xos.

Voyaga yetmaganlarni ta'riflashda B.Y.Usmonov xayotiy tajribasizlik, biron odamga o'xshashga intilish, o'ta ta'sirchanlik, tengdoshlari orasida o'zini ustun qo'yishga intilish, o'ziga nisbatan hurmat-e'tiborni qozonishni xohlash, kayfiyatning keskin o'zgarib turishi, o'ylamasdan harakatlar qilish, voqealarni o'z dunyoqarashi jihatidan qabul qilish va huquqiy jihatdan cheklangan layoqat maqomi kabilarga alohida e'tibor qaratadi. Bu borada A.Bazarov voyaga yetmaganlarda jamiyat talablari va axloqiy qoidalardan og'ish kuzatilishini ta'kidlab o'tgan.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, voyaga yetmaganlarga xos bo'lgan belgilar ularning fiziologik rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga qaror qabul qilishda xatti-harakatlarining ahamiyati va natijalarini to'liq darajada anglab yetmaslik, jizzakilik, hurmat- e'tiborga bo'lgan yuqori ehtiyoj, o'zini boshqalardan ustun qo'yish, ishonuvchanlik va guruhdan chiqarib yuborilishdan qo'rqish kabi jihatlar xos.

Foydalangan adabiyotlar:

1. www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/juveniles_deinquency_prevention.shtml
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017йил 7февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекис тон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
3. Черненко Е.О. Профилактика несовершеннолетней преступности //Nauka-rastudent.ru. - 2017. No.08(044)/[Электронный ресурс]-Режим доступа.-URL:<http://nauka-rastudent.ru/44/4337/>
4. Гаджиева П.Д., Магомедов Г.Н. Социально-психологическая характеристика преступности в молодежной сфере // Международный научный журнал «Символ науки». 2017. № 11. С.67.
5. Демидова-Петрова Е. Специфика преступности несовершеннолетних как одного из видов преступности в Российской Федерации //Ученые записки Казанского юридического института МВД России. - 2017. - Том 2 (3). - С.15.





6. Хармаев Ю.В., И.Батчулуун. К вопросу о преступности несовершеннолетних в Российской Федерации и Монголии //Вестник Югорского государственного университета. 2018. - Выпуск 2 (49). С. 79-84.
7. Решетников А.Ю. Криминология. М., 2014. -С. 8.
8. Королева О., Ваульхин В. Преступность несовершеннолетних и меры её предупреждения // Мир науки и образования. - 2015. - № 4. - С. 3.
9. Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-139-сон. 07.01.2008 й.
10. 10.“Бола ҳуқуқлари тўғрисида”ги Конвенция. 1989 йил 20 ноябрь. Ўзбекистон Республикаси мазкур Конвенцияга Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1992 йил 9 декабрдаги 757-Х11-сонли «Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияга қўшилиш ҳақида»ги қарорига мувофиқ қўшилган

